

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

QO‘LYOZMA HUQUQIDA

UDK: 330.3:658.01(575.1)

SHOMANSUROVA ZILOLA ABDUVAXITOVNA

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI
MOLIYALASHTIRISHNING METODOLGIK ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisod fanlari doktori (DSc) darajasini olish uchun bajarilgan

DISSERTATSIYA

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I.BOB. AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INNOVATSION LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI..	15
1.1. Aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyati moliyalashtirish uslubiyotining nazariy jihatlar.....	15
1.2. Aksiyadorlik jamiyatlarini innovatsion loyihalarini moliyalashtirishning o‘ziga xos jihatlar.....	31
1.3. Rivojlangan mamlakatlar aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion faoliyatini moliyalashtirish xorij tajribasi va uning xususiyatlari	47
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	64
II. BOB. DAVLAT TOMONIDAN AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INNOVATSION FAOLIYATI MOLİYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH HOLATI	67
2.1. Davlat ilmiy dasturlari orqali innovatsion loyihalarni moliyalashtirish holati..	67
2.2. Davlat tomonidan aksiyadorlik jamiyatlarini ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini moliyalashtirish holati tahlili	82
2.3. Davlat tomonidan aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion loyihalarini moliyalashtirishning o‘ziga xos jihatlar	99
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	115
III.BOB. AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INNOVATSION FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGI TAHLILI	118
3.1. Aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion loyihalarini moliyalashtirishning holati va uning samaradorligi ko‘rsatkichlari tahlili	118
3.2. Aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion loyihalarini moliyaviy salohiyatini baholash holati	134
3.3. Aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion loyihalarini moliyalashtirishga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili	151
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	162
IV. BOB. AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	165
4.1. Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari	165
4.2. Aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion loyihalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	182
4.3. Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning istiqbolli yo‘llari	195
To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	213
XULOSA.....	217
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	221

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globalashuv va keskin raqobat sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda ichki va tashqi manbalardan foydalanishda risklarni baholashning eng maqbul usullaridan foydalanish, innovatsion loyihalar samaradorligini aniqlash metodlarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda venchur moliyalashtirish bozori instrumentlaridan keng foydalanish hamda davlat tomonidan innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samarali ishlab kelinmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi ma'lumotlariga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion loyihalarni amalga oshirishda ilmiy-tadqiqot ishlariga (R&D) yalpi ichki mahsulotga nisbatan Shveysariya 2,65 foiz Belgiya 2,46 foiz, Avstriya 2,27 foiz, Germaniya 2,12 foiz, Finlyandiya 2,09 foiz va Daniya 1,83 foiz mablag'lar yo'naltirilgan¹. Bu esa, o'z navbatida, aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion loyihalarni amalga oshirishda ilmiy-tadqiqot ishlariga sarmoya yo'naltirish, innovatsion loyihalar samaradorligini aniq baholash, venchur fondlar va biznes-angellar ishtirokidagi loyihalarni rag'batlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Jahon amaliyotida yirik aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlari, "yashil" qimmatli qog'ozlarni chiqarish, davlat grantlari, subsidiyalar hamda venchur kapital kabi moliyaviy resurslarni jalb qilishga oid ilmiy-uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlari innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda zamonaviy moliyalashtirish usullaridan samarali foydalanish, venchur kapital mablag'larini jalb qilish orqali innovatsion loyihalarni amalga oshirish, "yashil" obligatsiyalar chiqarish orqali ekologik yo'naltirilgan innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, kraudfanding platformalari orqali ommaviy moliyalashtirishni ta'minlash, shuningdek, davlat

¹ https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=R%26D_expenditure&utm_source

tomonidan ajratiladigan grantlar va subsidiyalar asosida innovatsion tashabbuslarni ragʻbatlantirish, aksiyadorlik jamiyatlarida aksiya va warrantlar asosida tadqiqot va rivojlanish (R&D) faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlari takomillashtirish kabi yoʻnalishlar ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy yoʻnalishlari hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tarkibiy qismi sifatida real sektorda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirish yoʻnalishida bir qator samarali chora-tadbirlar koʻrilmoqda. Xususan, tijorat banklari kreditlari, davlat grantlari va subsidiyalarini jalb etish, shuningdek, tadqiqot va rivojlanish (R&D) faoliyatini davlat tomonidan ragʻbatlantirish va qoʻllab-quvvatlashga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Jumladan, “Oʻzbekiston Respublikasining Global innovatsion indeksdagi oʻrnini yaxshilash hamda 2030-yilga qadar ushbu indeksda dunyodagi yetakchi 50 mamlakat qatoriga kirishi”² borasidagi vazifa davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu vazifaning samarali bajarilishi aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni ragʻbatlantirish, venchur fondlar orqali moliyaviy resurslarni jalb qilish, shuningdek, loyihalarni ichki va tashqi moliya manbalari orqali amalga oshirishning zamonaviy usullaridan keng foydalanish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisidagi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022–2026-yillarda Oʻzbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi, 2021-yil 1-yanvardagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boʻyicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi, 2018-yil 24-noyabrdagi PF-5583-son “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi farmonlari hamda 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3416-son

² Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”dagi farmoni PF-60-son, 2022-yil 28-yanvar